


II. SANOAT



Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 36 921,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 113,7 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-iyun
mlrd. so'm**




**Yanvar-iyun
FHI, % da**





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 58 182,8 ming so'm, Xonobod shahrida 33 224,3 ming so'm hamda Andijon shahrida 10 865,2 ming so'm va Xo'jaobod tumanida 10 382,4 ming so'mni tashkil etmoqda.

**Yanvar-iyun
ming so'm**



**Yanvar-iyun
o'sish sur'ati, % da**



■ Ming so'm ■ O'sish sur'ati, % da



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 35 851,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,1 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (56,2 %), Andijon shahri (14,1 %), Xonobod shahri (4,1 %), Baliqchi tumani (3,6 %) hamda Xo'jaobod tumani (3,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Oltinko'l tumanida (115,8 %), Asaka tumanida (110,8 %), hamda Paxtaobod tumanida (109,8 %) kuzatildi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 662,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini tashkil etdi.



Yanvar-iyun

2023-y. 466,8 mlrd. soʻm

2024-y. 662,5 mlrd. soʻm

FHI, % da

2023-y. 141,0 %

2024-y. 126,7 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35 851,1 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,1 % ini tashkil etdi.

Yanvar-iyun

2023-y. 28 089,7 mlrd. soʻm

2024-y. 35 851,1 mlrd. soʻm


FHI, % da

2023-y. 104,4 %

2024-y. 113,4 %



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 124,5 ming dona yengil avtomobillar (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 108,0 % ni tashkil qildi), 20,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni, (81,8 % ga kamaygan), 33,6 ming tonna paxtadan yigirilgan ip mahsulotlari (121,6 % ga oshgan) ishlab chiqarilgan.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati,
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtsoslashtirilmagan), dona	124 512	204 189	-79 677
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	33 633,7	18 549,3	15 084,5
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	20 253,9	24 748,3	4 494,3
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	124,8	170,0	-46

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi 67,4 % (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi 9,7 % (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,4 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi 9,4 % (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,0 % (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 115,2 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 70,9 % (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 68,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,4 % (2023-yilning yanvar-iyun oylarida –4,7 %) va quyi texnologiyalisi – 26,6 % (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 26,9 %)ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 28,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 78,4 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 44,8 % ni tashkil etgan.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 409,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,9 % ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 798,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,6 % ni tashkil etgan.

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 92,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 198,4 mlrd. so'ni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-iyun oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,4 % ni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,4 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 114,5 % ga oshgan, ishlab chiqarish hajmi 3 359,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,4 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,4 %, fizik hajm indeksi 114,0 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 24 153,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 66,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 118,4 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 123,5 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 390,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 2,2 m. % ni tashkil etgan.


Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 187,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 439,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 133,1 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 100,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 213,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 104,6 % ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 299,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 154,9 mlrd. so'mga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	397,0	319,6	77,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	-	0,4	-0,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 109,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	16,9	99,3	-82,4
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	78,8	57,2	21,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 109,1 mlrd. so'm yoki 31,1 ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava suvlarning shلامي bo'yicha xizmatlarda 16,2 mlrd. so'm hajm bajarilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
2024-yilning yanvar-iyun oylarida
(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, foizda)


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 971,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Izboskan tumani (98,9 %), Ulugʻnor tumani (90,2 %), Jalaquduq tumani (89,7 %), Andijon tumani (87,5 %) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Asaka tumani (1,9 %), Xonobod shahri (20,1 %), Andijon shahri (28,4 %)ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 11 216 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 151 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 359 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 26,4 %) Andijon shahriga, 546 tasi (10,6 %) Andijon tumaniga, 449 tasi (8,7 %) Asaka tumaniga, 364 tasi (7,1 %) Shahrixon tumaniga va 325 tasi (6,3 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.




- Yangi tashkil etilgan korxonalar, birlikda
- Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar, birlikda

Yangi tashkil etilgan korxonalar, birlikda



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar, birlikda



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarida (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq mezon hisoblanmasa ham, o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.